

ALEKSAND ARKADEVICH FAYNBERG SHE'RIYATIDA UMID VA ISHONCH FALSAFASI

“MENI DEYA CHEKMA IZTIROB” SHE'RI TAHLILI

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O'zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Aleksandr Arkadevich Faynberg(1939-2009)- o'zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan bo'lib,u o'z nazmida inson qalbining ichki kuchi,hayotga ishonch va umid falsafasini o'ziga xos lirizm bilan ifoda eta olgan.Faynberg ijod yo'liga nazar tashlar ekanmiz,u ko'p hollarda she'rlarida inson va zamon o'rtasidagi murakkab munosabatilarini,inson ichki dunyosida kechayotgan ayovsiz kurashlarni,ularning hammasiga qaramasdan barbir yorug'lik sari harakat qilishni,ezglilikka ishonchni kuylaydi.Shoir qalamiga mansub “Meni deya chekma iztirob” she'rida ham aynan mana shu masala muhokama etiladi va chuqur falsafiy mulohaza,lirizm bilan ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ishonch,umid,ruhiy tayanch,ma'naviy kuch manbai,hayotga muhabbat,yorug'likka tashnalik,ichki sokinlik.

Aleksandr Arkadevich Faynberg o'zining ijod yo'lida insoniy betakror fazilatlar va insonlarga xos bo'lgan ichki kechinmalar mavzusiga bod-bod murojaat qiladi.Ularni turli ramzlar bilan falsafiy jihatdan ochib berishga harakat qiladi. “Meni deya chekma iztirob” she'ri ham inson ruhiy kechinmalarini falsafiy jihatdan turli tabiat ramzlaridan foydalangan holda yoritib berilgani bilan farqlanadi.

She'ning ilk misralaridanoq lirik qahramonning hayotga qarshi bardam turishi,uning ruhiy qudrati namoyon bo'ladi:

Meni deya chekma iztirob,

Yashayapman mag'rur,qaddi tik.

Bu misralardan shoirning hayot sinovlariga bo'lgan qat'iy munosabatini aks ettiradi.Muallif bu orqali o'quvchining hayot to'zonlarida sinovlarga qarshi bardam bukilmadan turishga,orzu-umidlari yo'lida ishonchga sodiq qolishga davat etadi.

Faynberg ijodida “ishonch” tushunchasi ruhiy tayanch,ma'naviy kuch manbai sifatida talqin qilinadi:

Yelkam turar sobit Ishonchim,

Yorug' kunlar qarshimda- tetik.

Shoir uchun ishonch faqat iymon emas,hayotga bo'lgan muhabbatdir.Yorug' kunlar esa ramziy obraz hisoblanib,kelajakdagi umid,baxt,tinchlikni ifodalaydi.

She'rda bir necha tabiat obrazlari ramziy ma'noda,inson ruhiy kechinmalari va holatini yoritib berishda ham ishlatiladi.Masalan:

Kengliklarda goh yomg'ir,shamol,

O'rlar bo'sh-bo'sh dala o'tinchi.

Yuraginga bargsiz shoxlardan

Mo'ralaydi Umid sog'inchi.

Bu satrlarda “bargsiz shoxlar”-sinovli hayot, “Umid sog'inchi” esa og'ir damlarda ham yurakka tinchlik bermaydigan yorug'likka tashnalik ramzidir.Shu bilan bir qatorda, “yomg'ir”, “shamol”, “moviy ko'k”, “yulduz” kabi obrazlar orqali tozalash,yangilanish,hayot davomiyligi falsafasi ilgari suriladi.

She'rni o'qir ekanmiz,lirik qahramon Faynbergning o'zi ekanligini anglaymiz.Muhim jihat shundaki, u ideal insoniy holatni ifodalaydi.U hayotda og'ir,hasratli kunlarni boshdan kechirishiga qaramasdan,ichki dunyosidagi sokinlikni va mehrni asrab qola olgan shaxsdir:

Xusumatdan xoli dil toza,

Alam, hasrat sezinmas also.

Bu satrlar orqali ijodkor ruhiy poklik eng oliy insoniy fazilat deya ta'kidlaydi. Uning uchun eng katta kuch kechirish va bardamlikda.

Moviy ko'kda tiniq yulduzim

Oydin yo'lga boshlaydi, illo.

She'rning so'ngidagi mana shu satrlar shoir falsafasi mujassamlashgan nuqtadir.

“Yulduz”- yo'lchi nur, “moviy ko'k” esa abadiy poklik va ruhiy yuksalish ramzi. Xulosa qilib aytganda, she'rda yorug'lik sari yo'l yuruvchi inson kuylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Faynberg A.A. Tanlangan asarlar.- Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985.
2. Karimov N. Zamonaviy o'zbek lirikasi tahlillari.- Toshkent: Fan, 2010.
3. Rahmonov S. XX asr o'zbek she'riyati manzaralari: Toshkent: Universiteti, 2010.
4. Ziyouz.com kutubxonasi
5. Xudoyberdiyev H. Milliy ruh va zamonaviy lirika.- Toshkent: Ma'naviyat, 2016.